

**Jurayev Baxrom,**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar  
va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, psixologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## O'SPIRINLARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI PSIXOLOGIK TADQIQ ETISH – DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

UO'K 159.922.6

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL\\_2026\\_ISSUE\\_3\\_7](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_3_7)

### **JURAYEV B. O'SPIRINLARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI PSIXOLOGIK TADQIQ ETISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA**

Mazkur maqolada o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishning psixologik jihatlari tahlil etiladi. Unda yoshlarning huquqiy bilim darajasi, ijtimoiy muhit va psixologik omillar ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda o'spirinlarning huquqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim shart-sharoitlar aniqlangan. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: shaxs, o'spirin, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, qonun, yoshlar huquqlari.

### **ЖУРАЕВ Б. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА**

В данной статье анализируются психологические аспекты формирования правовой грамотности у подростков. Научно исследуется уровень правовых знаний молодежи, влияние социальной среды и психологических факторов. В исследовании выявлены важные условия, способствующие развитию правового сознания у подростков. Также разработаны практические рекомендации по повышению правовой грамотности.

Ключевые слова и понятия: личность, подросток, гражданское общество, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, право, права молодежи.

### **JURAYEV B. PSYCHOLOGICAL RESEARCH OF LEGAL LITERACY IN ADOLESCENTS – AS A CURRENT PROBLEM**

This article analyzes the psychological aspects of the formation of legal literacy in adolescents. It scientifically examines the level of legal knowledge of young people, the influence of social environment and psychological factors. The study identified important conditions that contribute to the development of legal awareness in adolescents. Practical recommendations for improving legal literacy have also been developed.

Keywords and concepts: personality, teenager, civil society, legal awareness, legal culture, legal literacy, law, youth rights.

**Mavzuning dolzarbligi.** Jahonda o'spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish, "oilajamiat-inson" munosabatlari tizimi barqarorlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. UNESCO tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda oilaviy muhitning mustahkamligi yoshlar orasida huquqiy muammolarning paydo bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va ijtimoiy nizolarning 20-30% ga kamayishiga olib kelishi aniqlangan. Ayni paytda ko'pgina davlatlarda oilada huquqiy tarbiya, uning huquq va erkinliklari demokratik qadriyatlar sifatida qaralib, davlat, siyosiy institutlar, xususan, ijtimoiy boshqaruv institutlari xodimlari samarali faoliyatining asosiy ko'rsatkichi mezoni ana shu huquqiy qadriyatlarga qanchalik muvofiqligi bilan belgilanmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan jamiyatning barcha boshqaruv bo'g'inlarida, xususan oilaviy munosabatlarda huquqiy savodxonlik darajasini oshirish dolzarb masala bo'lib, uning ijtimoiy-psixologik kontseptlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida yoshlarning jamiyatimizdagi o'rni haqida to'xtalib, "...yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda yoshlarning ongu-tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir" [2] degan edi. Davlatimiz rahbari bu bilan

jahon afkor ommasiga hozirgi murakkab va tahlikali davrda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtirokidan foydalanish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini tarbiyalash zarurligiga doir bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

### **Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.**

Jahon psixologiya fanida fuqarolarning huquqiy savodxonligi, huquqiy savodxonlik va savodsizlikning psixologik xususiyatlari, psixologik savodxonlikning shaxs ijtimoiylashuv omili sifatidagi huquqiy madaniyati, huquqiy ong, aholining huquqiy savodxonlik indeksi kabi yo'nalishlarga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jamiyatda o'z o'rnini topishga qiyinaladigan o'spirinlarning fuqarolik huquqlarini anglab yetishi, shaxsiy va jamoat ishida faolligini namoyon etishiga to'siq bo'luvchi holatlarning huquqiy jihatlarini ta'minlash, ularda huquqiy savodxonlikning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish va keng qamrovli konstruktiv choralarini amalga oshirish zarurati kuzatilmoqda.

Bir qator tadqiqotlarda mualliflar huquqiy savodxonlik, huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat masalasiga to'xtalib o'tishgan. V.X.Djabbarov [3], I.N.Vashuk, YE.A.Basova, A.O.Kuratov [5], T.V.Nabiyeva [6], Sh.F.Faraxutdinov [7], P.A.Yakimov [8], kabi tadqiqotchilarning ishlarida huquqiy ong va huquqiy savodxonlik bo'yicha tadqiqot ishlarining maqsad va mazmunidan kelib chiqqan holda o'zlarining fikrlarini berib o'tishgan. O'zbekistonda huquqiy savodxonlikni ta'minlash borasidagi psixologik tadqiqotlar ko'lami kam darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda huquq psixologiyasining ba'zi muammolarini psixolog olimlardan M.X.Axmedova, YE.Y.Agzamova, N.G'.Kamilova, G'.A.Normurodov, B.M.Umarov, V.G.Shepotkin, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Ularning ilmiy izlan-

1-jadval. Huquqiy savodxonlik darajasini subyektiv baholash natijalari

| Baholash mezonlari                                            | O'spirinlar munosabat miqdori, nafar | Foiz  |
|---------------------------------------------------------------|--------------------------------------|-------|
| Huquqning turli xil jihatlarini bilaman                       | 80                                   | 25,89 |
| Huquqning ayrim jihatlarini bilaman                           | 229                                  | 74,11 |
| Huquqning jihatlari bo'yicha biror bir ma'lumotga ega emasman | -                                    | -     |

2-jadval. O'spirinlarning huquqiy savodxonligini faoliyatini huquqiy jihatdan amalga oshirishdagi ahamiyatiga subyektiv munosabat ko'rsatkichlari

| Baholash mezonlari | O'spirinlar munosabat miqdori, nafar | Foiz  |
|--------------------|--------------------------------------|-------|
| Yetarlicha         | 78                                   | 25,24 |
| Qisman etarli      | 191                                  | 61,81 |
| Yetarli emas       | 40                                   | 12,95 |

ishlarida huquqiy savodxonlikni ta'minlashning psixologik muammolaridan ko'ra, boshqa yo'nalishlar, ya'ni, jinoiy xulq-atvor xususiyatlari, huquq-tartibot yo'nalishi xodimlari faoliyati psixologiyasi masalalari tadqiq etilgan [4].

**Tadqiqotning maqsadi** o'spirinlarda huquqiy savodxonlikning tarkibiy tuzilmasi, shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni empirik tadqiq etish hamda huquqiy savodxonlikni oshirishning psixologik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

**Tadqiqot predmetini** o'spirinlarning huquqiy savodxonlikka ehtiyojlari, uning kognitiv, xulqiy, huquqiy komponentlari va ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qarshi davlat universitetidan 135 nafar, Samarqand davlat universitetidan 104 nafar, umumta'lim maktabdan 164 nafar, ishlab chiqarishda faoliyat olib borayotgan 56 nafar o'spirinlik yosh davridagi talabalar-yoshlar-yuqori sinf o'quvchilari jalb etildi. Respondentlarning umumiy soni 459 nafarni tashkil etdi.

**Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari.** Biz ilmiy tadqiqot ishimizda o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida Qarshi davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti talabalarini respondent sifatida tanlab oldik. Jami respondentlar soni 309 nafarni tashkil etadi. Tadqiqot ishida o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsa-

dida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek L.S.Mozjakovaning "Huquqiy savodxonlikni o'rganish", D.S.Beznosovning "Huquqqa munosabat" kabi metodikalari va empirik ma'lumotlarning normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirishda Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalandik.

O'spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasiga subyektiv munosabatlariga ko'ra "huquqning turli xil jihatlarini bilaman" deb baholagan respondentlar 80 nafar (25,89%) ni tashkil etdi. Bu holat o'z navbatida huquq ta'limi sharoitida o'spirinlarning huquqiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va intilishlari 25% ta'lim oluvchilar ko'proq e'tiborga loyiq degan xulosani bermoqda (1-jadvalga qarang).

"Huquqning ayrim jihatlarini bilaman" degan o'spirinlar esa 229 nafar (74,11)ni tashkil etdi. O'spirinlarning bu qismi huquq bilan bog'liq jihatlarining ayrim tomonlariga e'tibor qaratishmoqdalar. Huquqiy ta'lim jarayonida fan doirasidagi bilimlarni o'zlashtirishda nisbatan kam e'tibor qaratayotganlar ko'pchilikdan iborat bo'lmoqda. Bu holat o'spirinlarning ham kelajakda turmush muammolari bilan bog'liq holatlarda o'zlarining huquqiy masalalariga nisbatan barqaror munosabat shakllanmasligidan dalolat bermoqda.

"Huquqning jihatlari bo'yicha biror bir ma'lumotga ega emasman" degan respondentlar kuzatilmadi. Bu holat albatta huquqiy ta'lim jarayoni ta'lim muassasalarida bejizga o'qitilmasligini anglatadi (2-jadvalga qarang).

O'spirinlarning huquqiy savodxonlik bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarining faoliyatni

**3-jadval. O'spirinlarning huquqiy savodxonliklarini ta'minlash uchun foydalanadigan manbalarga munosabatlari**

| Baholash mezonlari                                     | O'spirinlar munosabat miqdori, nafar | Foiz  |
|--------------------------------------------------------|--------------------------------------|-------|
| Huquqiy manbalardan foydalanishga qobiliyatliman       | 106                                  | 34,31 |
| Huquqiy manbalarni tushunaman, ammo foydalana olmayman | 150                                  | 48,54 |
| Huquqiy manbalardan foydalanishni bilmayman            | 53                                   | 17,15 |

**4-jadval. Huquqiy normalarga rioya qilish xususiyatlari ko'rsatkichlari**

| Baholash mezonlari                                                                               | O'spirinlar munosabat miqdori, nafar | Foiz |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|------|
| Xavfli qonun buzilishi bilan bog'liq vaziyatlarda qonun normalarini qo'llash ko'nikmasiga egalik | 119                                  |      |
| Qiyin vaziyatlarda huquqiy normalarni qo'llash uquvi                                             | 165                                  |      |
| Odatiy holatdan huquqiy normalarni qo'llash o'quvi                                               |                                      |      |
| Huquqiy normalarni qo'llash o'quvining yetarli emasligi                                          | -                                    | -    |

huquqiy jihatdan amalga oshirishlaridagi o'rnini yetarlicha deb baholaganlar 78 nafar (25,24%) dan iborat. Ular huquqiy bilimlarga zarurat tug'ilgandan huquqiy masalalar bo'yicha o'z faoliyatlarini tashkil etishga xayrixoh ekanliklarini ko'rsata olganlar.

Huquqiy bilimlarga zarurat tug'ilganda uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlari "qisman yetarli" deb baholaganlar esa 191 nafar (61,81%) dan iboratdir. Bu esa o'spirinlar har doim ham huquqiy jihatdan faoliyatni tashkil etishga to'liq tayyor emasdirlar.

O'spirinlarning 40 nafari (12,95%) esa huquqiy savodxonlik faoliyatini huquqiy jihatdan amalga oshirishdagi o'rni yetarli emas degan javob bilan cheklanganlar. Mazkur baholash mezoniga ko'ra o'spirinlarning ushbu guruhi huquqiy savodxonlik darajasi zarurat tug'ilganda hech qanday amaliy natijaga ega emasdirlar.

Huquqiy savodxonlikni shakllantirishda foydalaniladigan manbalarning o'rni beqiyos, ular o'quv adabiyotlari, televizion ko'rsatuvlar, radioeshitirishlar, internet manbalari va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Tadqiqotda o'spirinlarning huquqiy savodxonliklarini ta'minlash uchun foydalanadigan manbalariga munosabatlari quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi (3-jadvalga qarang).

O'spirinlarning munosabatiga ko'ra huquqiy manbalardan foydalanishda "huquqiy manbalardan foydalanishga qobiliyatliman" degan baholash mezonini bo'yicha 106 nafar (34,31%) respondent manbalardan foydalanishga qobiliyatli ekanliklarini bildirganlar. Bundan ko'rinadiki, qaysidir ma'noda huquqiy savodxonlik borasida

o'smirlar o'zlarining haq-huquqlarini huquqiy jihatdan himoya qilish uchun zarur manbalardan foydalanishga qobiliyatli ekanliklarini ko'rsata olganlar. Bu holatni o'spirinlarning huquqiy bilimlarni o'zlashtirishdagi yutuqlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Bir toifa o'spirinlar borki, ular "huquqiy manbalarni tushunaman, ammo foydalana olmayman" baholash mezonini bo'yicha 150 nafar (48,54%)i tushunishlari mumkinligini bildirganlar. Ular tushunsalarda, ammo amaliy foydalanishni uddalay olmasliklarini ham qayd qilganlar.

"Huquqiy manbalardan foydalanishni bilmayman" degan mulohazani 53 nafari (17,15%) ta'kidlaganlar. O'spirinlarni bu toifasi kundalik hayotlarida huquqiy masalalar bo'yicha zarurat sezmagunlaricha, balki huquqiy manbalarga murojaat qilmaydilar. Huquqiy manbalardan foydalanishga bo'lgan intilishlari bo'lsa-da, ammo ma'lumotlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari kabi ko'nikmaga ega bo'lmasliklarini tan olishlariga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Aslida huquqiy savodxonlik shaxsda zarur bilim, o'quv ko'nikmalari hisobida mustahkamlanadi. Biz tadqiqotimizda o'spirinlarning huquqiy savodxonligida normalarga amal qilish uquv va ko'nikmalarini tadqiq etishga ham e'tibor qaratildi. O'rganish natijasida o'spirinlarning huquqiy savodxonlik ko'nikmalari qo'yidagilarda kuzaatiladi (4-jadvalga qarang).

O'spirinlar huquqiy normalarga rioya qilish xususiyatlarida quyidagi munosabatlarni ustuvor tarzda baholadilar. Birinchisi, "xavfli qonun buzilishi bilan bog'liq vaziyatlarda qonun normalarini

5-jadval. O'spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishiga sabab bo'lgan omillar ko'rsatkichlari

| Baholash mezonlari                                                     | O'spirinlar munosabat miqdori, nafar | Foiz  |
|------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|-------|
| Ta'lim jarayonida huquq fanlarining o'qitilishi                        | 129                                  | 41,75 |
| Huquqiy holatlar bilan bog'liq vaziyatlarga tushib qolganligim         | 39                                   | 12,62 |
| Har bir fuqaro huquqiy savodxonlikka ega bo'lishi kerak degan tasavvur | 75                                   | 24,27 |
| Huquq sohasiga bo'lgan qiziqishim                                      | 17                                   | 5,5   |
| Shaxsiy intilishim                                                     | 20                                   | 6,47  |
| Atrofdagilardan huquqiy jihatdan ustuvor bo'lish istagi                | -                                    | -     |
| Hayotda kerak bo'ladi degan tushuncha tufayli                          | 29                                   | 9,39  |
| Boshqa sabablar                                                        | -                                    | -     |

qo'llash ko'nikmasiga egalik" asosida baholanganlar (119 nafar (38,51 %)). Bundan ko'rinadiki, huquqiy normalarni amaliy qo'llash hisobida uni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lganliklarini bildirganlar.

Ikkinchisi esa "qiyin vaziyatlarda huquqiy normalarni qo'llash o'quvi" bilan bog'liq munosabatda aks etgan (165 nafar (53,4%). Bu holat esa o'spirinlar tomonidan normalarni qo'llash uquvi hisobida o'zlashtirish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Uchinchi toifa o'spirinlarda "odatiy holatdan huquqiy normalarni qo'llash o'quvi" orqali unga rioya qilish muhimligini bildirdilar (25 nafar (9,09)). O'spirinlar oddiy holatlarda ham huquqiy normalarni qo'llash hisobidan ma'lum darajada huquqiy savodxonlikka ega bo'lar ekan (5-jadvalga qarang).

O'spirinlar fikridan "ta'lim jarayonida huquq fanlarining o'qitilishi" huquqiy savodxonlikni shakllanishining asosiy sababi deb baholash mumkin (129 nafar (41,75 %)). Ayrimlari o'zlarida huquqiy savodxonlik shakllanishining asosiy sharti "huquqiy holatlar bilan bog'liq vaziyatlarga tushib qolganligim" deb munosabat bildirganlar (39 nafar (12,62%). Bir guruh o'spirinlar esa "har bir fuqaro huquqiy savodxonlikka ega bo'lishi kerak degan tasavvur" ushbu yo'nalishdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning asosiy sharti deb ko'rsatmoqdalar (75 nafar (24,27%)).

O'spirinlarning 17 nafari (5,5%)da esa huquqiy savodxonliklarining asosiy sababi sifatida qiziqishlari xizmat qilayotganliklarini ifodalaydilar. Shaxsiy intilishlarini sabab sifatida ko'rsatuvchilar 20 nafar (6,47%)ni tashkil etmoqda. Bu holat ham fuqarolar orasida turli bilim-

larga qiziquvchi insonlar ham borligidan dalolat bermoqda. Shuningdek, "hayotda kerak bo'ladi degan tushuncha tufayli" huquqiy savodxonlikni shakllantiruvchilar 29 nafar (9,39%)ni tashkil etdi. Ushbu toifa o'spirinlar oldingi tahlillarda huquqiy savodxonlikni o'zini o'zi nazorat qiluvchilarning munosabatini davomi deyish mumkin.

O'spirinlar tomonidan huquqiy savodxonlikni shaxsning o'zini boshqalar tomonidan e'tirof etishning asosiy sharti sifatida shakllantirish maqsadli deb qabul qilmaganlar (atrofdagilardan huquqiy jihatdan ustuvor bo'lish istagi).

### Xulosalar:

1. O'spirinlarning munosabatiga ko'ra huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj shaxsning har doim huquqiy bilimlar olishga va boyitib borishiga zaruratni hamda huquqiy masalalarga duch kelgandagina bilimlarga zaruratni vujudga keltirilgan. Ularning ko'pchilik qismi huquqning ayrim jihatlarini bilishlari, bir qatorlari esa huquq bo'yicha biror bir ma'lumotga ega emasliklari kuzatildi.

2. O'spirinlarda huquqiy savodxonligiga erishishning psixologik tahlili ular orasida ma'lum savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi manbalardan foydalanishlariga ko'ra huquqiy manbalarni tushunmaydigan, foydalana olmaydigan va huquqiy manbalardan foydalana oladiganlar toifasiga ajratildi.

3. O'spirinlarning huquqiy savodxonligi yo'nalishida huquqiy ma'lumotga, huquqiy qadriyatga, huquqiy faollikka, o'zini o'zi huquqiy nazorat qilish xususiyatlari egadirlar, ammo ularda huquqiy ijodkorlik yetishmaydi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://unescoibmw.org/>
2. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. <http://uza.uz/uz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkatmirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-20>
3. Джаббаров В.Х. Формирование гражданской грамотности студентов в процессе обучения в колледже: Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Самара, 2012.- 27 с.
4. Джураев Б. Психологические особенности формирования юридических понятий у учащихся. // НАУ Национальная ассоциация ученых, VII Международная научно-практическая конференция: «Отечественная наука в эпоху изменений: постулаты прошлого и теории нового времени» часть 8, 2(7) Екатеринбург-2015, 103-104 с.
5. Куратов А.О. Формирование социальной грамотности у курсантов в информационной образовательной среде военного вуза: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Кострома, 2006. – 22 с.
6. Набиева Т.В. Формирование гражданской грамотности старшеклассников: Автореферат диссерт... кандидат педагог. наук.-Уфа, 2005. - 28 с.
7. Фарахутдинов Ш.Ф. Институциональные основы формирования экологической грамотности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. – Тюмень, 2006. - 28 с.
8. Якимов П.А. Формирование поликультурной грамотности старшеклассника в образовательном процессе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Оренбург, 2007. - 23 с.